*— Aviatsiya uchun mo'ljallanganidan tashqari dvigatellar va turbinalar, avtomobil va mototsikllar dvigatellari ishlab chiqarish;*
*— Gidravlik va pnevmatik uskunalar ishlab chiqarish;*
*— Boshqa nasos va kompressorlar ishlab chiqarish;*
*— Boshqa jo'mrak va ventillar ishlab chiqarish;*
*— Podshipniklar, tishli g'ildiraklar, tishli uzatma va yuritmalarning elementlarini ishlab chiqarish;*
*— Plita, pechka va pechka gorelkalari ishlab chiqarish;*
*— Ko'tarma-transport uskunalari ishlab chiqarish;*
*— Ofis texnikasi va jihozlari ishlab chiqarish (kompyuterlar va periferik uskunalardan tashqari);*
*— Qo'l elektr asboblari ishlab chiqarish;*
*— Sanoat sovitish va ventilyatsiya uskunalari ishlab chiqarish;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan umumiy foydalanishga mo'ljallangan mashina va uskunalarni ishlab chiqarish;*
*— Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarish;*
*— Bosim ostida metallarga ishlov berish uchun uskunalar ishlab chiqarish;*
*— Boshqa metallga ishlov beradigan dastgohlar ishlab chiqarish;*
*— Metallurgiya uchun mashina va uskunalar ishlab chiqarish;*
*— Tog'-kon sanoati va yerosti konlari uchun texnika ishlab chiqarish;*
*— Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash uchun uskunalar ishlab chiqarish;*
*— To'qimachilik, tikuvchilik, mo'ynali va charm buyumlarni tayyorlash uchun mashina va uskunalar ishlab chiqarish;*
*— Qog'oz va karton tayyorlash uchun mashina va uskunalar ishlab chiqarish;*
*— Plastmassa va rezinani qayta ishlash uchun uskunalar ishlab chiqarish;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan, maxsus vazifalarga mo'ljallangan boshqa mashina va uskunalar ishlab chiqarish;*
*— Motorli transport vositalari ishlab chiqarish;*
*— Avtotransport vositalari uchun kuzovlar ishlab chiqarish; treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish;*
*— Avtotransport vositalari uchun elektr va elektron butlovchi qismlar ishlab chiqarish;*
*— Avtotransport vositalari uchun boshqa butlovchi qismlar va aksessuarlar ishlab chiqarish;*
*— Kemalar va suzuvchi konstruksiyalar qurish;*
*— Sayr va sport qayiqlari qurish;*
*— Temir yo'l lokomotivlari va harakatdagi sostavlar ishlab chiqarish;*
*— Uchish apparatlari, jumladan kosmik apparatlar, ishlab chiqarish;*
*— Harbiy jangovor transport vositalari ishlab chiqarish;*
*— Mototsikllar ishlab chiqarish;*
*— Velosipedlar va nogironlar aravachalari/kreslolari ishlab chiqarish;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa transport vositalari va uskunalari ishlab chiqarish;*
*— Ofis va magazinlar uchun mebel ishlab chiqarish;*
*— Oshxona uchun mebel ishlab chiqarish;*
*— To'shaklar ishlab chiqarish;*
*— Boshqa mebellar ishlab chiqarish;*
*— Tanga zarb qilish;*
*— Zargarlik buyumlari va shu kabi buyumlar ishlab chiqarish;*

*— Bijuteriya va shu kabi buyumlar ishlab chiqarish;*
*— Musiqa asboblari ishlab chiqarish;*
*— Sport tovarlari ishlab chiqarish;*
*— O'yin va o'yinchoqlar ishlab chiqarish;*
*— Meditsina va stomatologiya asboblari va jihozlari ishlab chiqarish;*
*— Supurgi va cho'tkalar ishlab chiqarish;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish;*
*— Tayyor metall buyumlarni ta'mirlash;*
*— Mashina va uskunalarni ta'mirlash;*
*— Elektron va optik uskunalarni ta'mirlash;*
*— Elektr uskunalarni ta'mirlash;*
*— Kemalar va qayiqlarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish;*
*— Havo kemalari va kosmik kemalarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish;*
*— Temir yo'l lokomotivlari va harakatdagi sostavlar, jumladan tramvaylar, metro vagonlari va trolleybuslarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan transport uskunalarining boshqa turlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish;*
*— Boshqa uskunalarni ta'mirlash;*
*— Sanoat texnika va uskunalarini montaj qilish (yig'ish);*
*— Issiqlik elektr stansiyalari tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish;*
*— Gidro elektr stansiyalari tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish;*
*— Boshqa elektr stansiyalari tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish;*
*— Elektr energiyasini uzatish;*
*— Elektr energiyasini taqsimlash;*
*— Elektr energiyasini sotish;*
*— Gaz ishlab chiqarish;*
*— Gaz bilan ta'minlash tizimi orqali gazsimon yoqilg'ini taqsimlash;*
*— Uzatish quvurlari orqali gazsimon yoqilg'ini sotish;*
*— Bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari;*
*— Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash;*
*— Kanalizatsiya tizimi;*
*— Zararsiz chiqindilarni yig'ish;*
*— Zararli chiqindilarni yig'ish;*
*— Zararsiz chiqindilarga ishlov berish va yo'qotish;*
*— Zararli chiqindilarga ishlov berish va yo'qotish;*
*— Siniq bo'laklarni yo'qotish;*
*— Ikkilamchi xom ashyo olish uchun metall chiqindilarni saralash va qayta ishlash;*
*— Ikkilamchi xom ashyo olish uchun nometall chiqindilarni saralash va qayta ishlash;*
*— Tiklash va chiqindilarni yo'qotish sohasidagi boshqa xizmatlar;*
*— Qurilish loyihalarini ishlab chiqish;*
*— Turar joy binolarini qurish;*
*— Yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish;*
*— Yo'llar va shosselar qurish;*
*— Temir yo'llar va metro liniyalari qurish;*
*— Ko'priklar va tunnellar qurish;*
*— Taqsimlovchi muhandislik obyektlari qurish;*
*— Elektr energiyasi va telekommunikatsiya bilan ta'minlash uchun taqsimlovchi obyektlar qurish;*
*— Suv inshootlari qurish;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa muhandislik inshootlari qurish;*
*— Binolarni qismlarga ajratish va buzish;*

*— Qurilish maydonchalaridagi tayyorgarlik ishlari;*
*— Qidiruv burg'ulash;*
*— Elektrotexnik va montaj ishlari;*
*— Suv bilan ta'minlash, isitish va havoni konditsiyalash tizimlarini montaj qilish;*
*— Izolyatsiyalash ishlari;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj ishlari;*
*— Suvoq ishlari;*
*— Duradgorlik ishlari;*
*— Pollarni qoplash va devor sirtini qoplash;*
*— Bo'yoqchilik va oyna solish ishlari;*
*— Boshqa pardozlash ishlari;*
*— Tom yopish ishlari;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari;*
*— Avtomobillar va yengil motorli transport vositalarining ulgurji savdosi;*
*— Avtomobillar va yengil motorli transport vositalarining chakana savdosi;*
*— Boshqa motorli transport vositalarining ulgurji savdosi;*
*— Boshqa motorli transport vositalarining chakana savdosi;*
*— Yengil avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;*
*— Boshqa avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;*
*— Avtomobillarni yuvish, sayqallash va shu kabi faoliyat;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan, motorli transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash turlari;*
*— Avtomobil detallari, uzellari va jihozlarining ulgurji savdosi;*
*— Avtomobil detallari, uzellari va jihozlarining chakana savdosi;*
*— Mototsikllar, ularning detallari, uzellari va jihozlarining ulgurji savdosi;*
*— Mototsikllar, ularning detallari, uzellari va jihozlarining chakana savdosi;*
*— Mototsikllarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;*
*— Qishloq xo'jalik xom ashyosi, tirik hayvonlar, to'qimachilik xom ashyosi va yarim fabrikatlar ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati;*
*— Yoqilg'i, rudalar, metallar va kimyoviy moddalar ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati;*
*— Yog'och va qurilish materiallari ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati;*
*— Mashinalar, uskunalar, sanoat uskunalari, suv kemalari va havo kemalari ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati;*
*— Mebel, maishiy tovarlar, temir-metall buyumlar va boshqa metall buyumlar ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati;*
*— To'qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechak, poyafzal, mo'ynali va charm buyumlar ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati;*
*— Oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan, tovarlarning alohida turlari yoki bir guruh tovarlar ulgurji savdosiga ixtisoslashgan agentlar faoliyati;*
*— Keng assortimentdagi tovarlar ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati;*
*— G'alla, urug'lar va hayvonlar uchun ozuqalarning ulgurji savdosi;*
*— Ishlov berilmagan tamakining ulgurji savdosi;*
*— Gullar va boshqa o'simliklarning ulgurji savdosi;*
*— Tirik hayvonlar ulgurji savdosi;*
*— Teri va charmlarning ulgurji savdosi;*
*— Mevalar va sabzavotlar ulgurji savdosi;*
*— Go'sht va go'sht mahsulotlari ulgurji savdosi;*
*— Sut mahsulotlari, tuxum, ovqatga ishlatiladigan yog' va moylar ulgurji savdosi;*

*— Spirtli ichimliklar ulgurji savdosi;*
*— Spirtsiz ichimliklar va pivoning ulgurji savdosi;*
*— Tamaki mahsulotlari ulgurji savdosi;*
*— Shakar, shokolad va shakarli qandolat mahsulotlari ulgurji savdosi;*
*— Qahva, choy, kakao va ziravorlar ulgurji savdosi;*
*— Boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan baliq, qisqichbaqasimonlar va mollyuskalar ulgurji savdosi;*
*— Oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari ixtisoslashmagan ulgurji savdosi;*
*— To'qimachilik tovarlari ulgurji savdosi;*
*— Kiyimlar ulgurji savdosi;*
*— Poyafzallar ulgurji savdosi;*
*— Maishiy radio- va teleapparaturalar ulgurji savdosi;*
*— Audio va video tasmalar, yozuvli SD va DVD disklari ulgurji savdosi;*
*— Boshqa maishiy elektr tovarlar ulgurji savdosi;*
*— Chinni buyumlar, shisha idishlar va tozalash vositalari ulgurji savdosi;*
*— Parfyumeriya va pardoz tovarlari ulgurji savdosi;*
*— Farmatsevtika tovarlari ulgurji savdosi;*
*— Maishiy mebellar va gilamlar ulgurji savdosi;*
*— Yoritish uskunalari ulgurji savdosi;*
*— Soatlar va zargarlik buyumlari ulgurji savdosi;*
*— Boshqa maishiy tovarlar ulgurji savdosi;*
*— Kompyuterlar, kompyuter periferik uskunalari va dasturiy ta'minot ulgurji savdosi;*
*— Elektron va telekommunikatsion uskunalar va ularning ehtiyot qismlari ulgurji savdosi;*
*— Qishloq xo'jaligi texnikalari, uskunalari va ehtiyot qismlari ulgurji savdosi;*
*— Mexanik dastgohlar ulgurji savdosi;*
*— Tog'-kon sanoati va fuqarolik qurilishi uchun texnikalar ulgurji savdosi;*
*— To'qimachilik, tikuvchilik va trikotaj sanoati uchun texnikalar ulgurji savdosi;*
*— Ofis mebellari ulgurji savdosi;*
*— Boshqa ofis texnikasi va uskunalari ulgurji savdosi;*
*— Boshqa texnika va uskunalar ulgurji savdosi;*
*— Qattiq, suyuq va gazsimon yoqilg'i va shu kabi mahsulotlar ulgurji savdosi;*
*— Metall va metall rudalari ulgurji savdosi;*
*— Yog'och, qurilish materiallari va sanitariya-texnik uskunalar ulgurji savdosi;*
*— Metall buyumlar, suv quvurlari va isitish uskunalari va inventarlari ulgurji savdosi;*
*— Kimyoviy mahsulotlar ulgurji savdosi;*
*— Boshqa oraliq mahsulotlar ulgurji savdosi;*
*— Chiqindi va siniq parchalar ulgurji savdosi;*
*— Ixtisoslashmagan ulgurji savdo;*
*— Ixtisoslashmagan do'konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi;*
*— Ixtisoslashmagan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi;*
*— Ixtisoslashgan do'konlarda mevalar va sabzavotlar chakana savdosi;*
*— Ixtisoslashgan do'konlarda go'sht va go'sht mahsulotlari chakana savdosi;*
*— Ixtisoslashgan do'konlarda baliq, qisqichbaqasimonlar va mollyuskalar chakana savdosi;*
*— Ixtisoslashgan do'konlarda non mahsulotlari, undan tayyorlangan va shakarli qandolat mahsulotlari chakana savdosi;*
*— Spirtli ichimliklar chakana savdosi;*
*— Spirtsiz ichimliklar va pivoning chakana savdosi;*
*— Ixtisoslashgan do'konlarda tamaki mahsulotlari chakana savdosi;*
*— Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi;*

— *Ixtisoslashgan do'konlarda motor yoqilg'isi chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda kompyuterlar, periferik uskunalar va dasturiy ta'minot chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda telekommunikatsiya uskunalari chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda audio-va videoapparaturalar chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda to'qimachilik buyumlari chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda mayda-chuyda metall buyumlar, lok-bo'yoq materiallari va shishalar chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda gilamlar va gilam mahsulotlari chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa devor va pol qoplamalari chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda maishiy elektr tovarlari chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda mebellar chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda yoritish uskunalari va boshqa maishiy jihozlar chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda kitoblar chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda gazetalar, jurnallar va kanselyariya tovarlari chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda video va audio yozuvlar chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda sport tovarlari chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda o'yin va o'yinchoqlar chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda trikotaj va paypoq-noski buyumlari chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda kiyimlar chakana savdosi (trikotaj va paypoq-noski buyumlaridan tashqari);*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda poyafzal chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda charm buyumlar chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda farmatsevtika tovarlari chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda meditsina va ortopedik tovarlar chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda pardoz tovarlari va gigiyena predmetlari chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda gullar va boshqa o'simliklar, urug'lar, o'g'itlar, uy hayvonlari va ular uchun ozuqalar chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda soatlar va zargarlik buyumlari chakana savdosi;*
— *Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi;*
— *Ilgari iste'molda bo'lgan tovarlar chakana savdosi;*
— *Chodirlar va bozorlarda oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari chakana savdosi;*
— *Chodirlar va bozorlarda to'qimachilik mahsulotlari, kiyim va poyafzallar chakana savdosi;*
— *Chodirlar va bozorlarda boshqa tovarlar chakana savdosi;*
— *Pochta va Internet orqali chakana savdo;*
— *Do'konlar, chodirlar va bozorlardan tashqaridagi boshqa chakana savdo;*
— *Temir yo'l yo'lovchi transporti, shaharlararo;*
— *Temir yo'l yuk transporti;*
— *Shahar va shahar atrofiga qatnaydigan quruqlikdagi yo'lovchi transporti;*
— *Taksi faoliyati;*
— *Boshqa toifalarga kiritilmagan quruqlikdagi yo'lovchi tashishning boshqa turlari;*
— *Avtomobil transportida yuk tashish;*
— *Ko'chish bo'yicha xizmat ko'rsatish;*
— *Quvurlar orqali yuk tashish;*
— *Dengiz va qirg'oqbo'yi yo'lovchi transporti;*
— *Dengiz va qirg'oqbo'yi yuk transporti;*
— *Daryo yo'lovchi transporti;*
— *Daryo yuk transporti;*
— *Havo yo'lovchi transporti;*
— *Havo yuk transporti;*
— *Kosmik transport tizimi;*
— *Omborlarga joylash va saqlash;*

*— Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar;*
*— Suv transporti sohasidagi xizmatlar;*
*— Havo transporti sohasidagi xizmatlar;*
*— Yuklarga ishlov berish;*
*— Temir yo'l, avtotransport, dengiz yoki havo orqali transportda tashishni tashkil qilish;*
*— Bojxona agentlarining xizmatlari;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan, tashish jarayonidagi boshqa kuzatib borish xizmatlari;*
*— Ommaviy qamrov zonasida xizmat ko'rsatish bo'yicha majburiyatlar asosidagi pochta xizmati;*
*— Boshqa pochta va kuryerlik faoliyati;*
*— Mehmonxonalar va shunga o'xshash yashash joylari;*
*— Dam olish kunlarida va boshqa qisqa yashash muddatlarida turar joy bilan ta'minlash;*
*— Turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar;*
*— Yashash uchun boshqa joylar xizmatlari;*
*— Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish bo'yicha xizmatlar;*
*— Buyurtma bo'yicha ovqat yetkazib berish;*
*— Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari;*
*— Ichimlik yetkazish;*
*— Kitoblar nashr qilish;*
*— Ma'lumotnoma va ro'yxatlar nashr qilish;*
*— Gazetalar nashr qilish;*
*— Jurnallar va davriy nashrlar nashr qilish;*
*— Nashriyotchilik faoliyatining boshqa turlari;*
*— Kompyuter o'yinlarini chiqarish;*
*— Boshqa dasturiy ta'minotlarni chiqarish;*
*— Kino- videofilmlar va televizion dasturlar ishlab chiqarish;*
*— Kino- videofilmlar va televizion dasturlarni ishlab chiqarishdan keyingi bosqich;*
*— Kinofilmlar, video va televizion dasturlarni tarqatish;*
*— Kinofilmlar namoyish qilish;*
*— Fonogrammalar va musiqali yozuvlarni nashr qilish bo'yicha faoliyat;*
*— Radioeshittirish;*
*— Televizion dasturlarni yaratish va namoyish qilish bo'yicha faoliyat;*
*— Simli aloqa xizmatlari ko'rsatish;*
*— Simsiz aloqa xizmatlari ko'rsatish;*
*— Yo'ldosh vositasidagi aloqa xizmatlari ko'rsatish;*
*— Boshqa telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish;*
*— Kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat;*
*— Kompyuter texnologiyalari sohasidagi maslahat xizmatlari;*
*— Kompyuter uskunalarini boshqarish bo'yicha faoliyat;*
*— Axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlari sohasidagi boshqa faoliyat turlari;*
*— Ma'lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar;*
*— Web-portallar;*
*— Axborot agentliklari faoliyati;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan, axborot xizmati ko'rsatish bo'yicha boshqa faoliyat;*
*— Pul-kredit vositachiligining boshqa turlari;*
*— Holding kompaniyalari faoliyati;*
*— Trestlar, jamg'armalar va shu kabi moliyaviy tashkilotlar;*
*— Moliyaviy lizing;*
*— Kredit berishning boshqa turlari;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan, sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning boshqa turlari;*

*— Hayotni sug'urtalash;*
*— Hayotni sug'urtalashdan tashqari sug'urtalash;*
*— Qayta sug'urtalash;*
*— Nafaqa jamg'armalari faoliyati;*
*— Moliyaviy bozorlarni boshqarish;*
*— Qimmatli qog'ozlar va tovarlarga shartnomalar bo'yicha brokerlik xizmati;*
*— Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha boshqa yordamchi faoliyat;*
*— Sug'urta tavakkali va zararini baholash bo'yicha faoliyat;*
*— Sug'urta agentlari va brokerlar faoliyati;*
*— Sug'urtalash va nafaqa ta'minoti sohasidagi boshqa yordamchi faoliyat;*
*— Jamg'armalarni boshqarish;*
*— Ko'chmas mulkni sotib olish va sotish;*
*— Savdoni tashkil qilish uchun maydonlarni ijaraga berish va boshqarish;*
*— Yashashga yaroqsiz joylarni ijaraga berish va boshqarish;*
*— Ko'p kvartirali uylar va turar joylarni ijaraga berish va boshqarish;*
*— Yerni ijaraga berish va boshqarish;*
*— Mukofot evaziga yoki shartnoma asosida ko'chmas mulkni boshqarish;*
*— Ishlab chiqarish maqsadlariga mo'ljallangan yoki mo'ljallanmagan yashashga yaroqsiz ko'chmas mulkni boshqarish;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan ko'chmas mulkni boshqarish bo'yicha xizmatlar;*
*— Buxgalterlik hisobi sohasidagi faoliyat;*
*— Auditorlik faoliyati;*
*— Soliq solish masalalari bo'yicha maslahatchilar xizmati;*
*— Jamoatchilik bilan o'zaro munosabatlar va aloqalar bo'yicha faoliyat;*
*— Tijorat faoliyati va boshqaruv masalalari bo'yicha maslahat berish;*
*— Me'morchilik sohasidagi faoliyat;*
*— Muhandislik izlanishlari sohasidagi faoliyat va bu sohalarda texnik maslahatlar berish;*
*— Texnik sinovlar va tahlillar;*
*— Biotexnologiyalar sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalar;*
*— Tabiiy fanlar va injeneriya sohasidagi boshqa tadqiqotlar va ishlanmalar;*
*— Ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasidagi tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalar;*
*— Reklama agentliklari;*
*— Ommaviy axborot vositalarida reklama berish;*
*— Bozor kon'yunkturasini tadqiq qilish va jamoatchilik fikrini o'rganish;*
*— Ixtisoslashgan dizaynerlik faoliyati;*
*— Fotografiya sohasidagi faoliyat;*
*— Yozma va og'zaki tarjima;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan professional, ilmiy va texnik faoliyat;*
*— Veterinariya faoliyati;*
*— Yengil avtomobillar va yengil motorli transport vositalari ijarasi va lizingi;*
*— Yuk tashuvchi transport vositalari ijarasi va lizingi;*
*— Ko'ngil ochish va sport uchun jihozlar ijarasi va lizingi;*
*— Videoyozuvlar va disklar prokati;*
*— Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlar ijarasi va lizingi;*
*— Qishloq xo'jalik texnikasi va uskunalari ijarasi va lizingi;*
*— Fuqarolik obyektlari qurish uchun mo'ljallangan qurilish texnikasi va uskunalari ijarasi va lizingi;*
*— Ofis mashinalari va uskunalari, jumladan hisoblash texnikasi, ijarasi va lizingi;*
*— Suv transporti vositalari va uskunalari ijarasi va lizingi;*
*— Havo transporti vositalari va uskunalari ijarasi va lizingi;*

*— Boshqa toifalarga kiritilmagan, boshqa mashina, uskuna va moddiy mablag'lar ijarasi va lizingi;*
*— Mualliflik huquqi himoyalangan ishlardan tashqari, intellektual mulk va shu kabi mahsulotlar ijarasi va lizingi;*
*— Ishga joylashtirish bo'yicha agentliklar faoliyati;*
*— Vaqtincha ishga joylashtirish bo'yicha agentliklar faoliyati;*
*— Xodimlar bilan ishlash bo'yicha boshqa tashkilotlar faoliyati;*
*— Turistik agentliklar faoliyati;*
*— Turoperatorlar faoliyati;*
*— Joy bron qilish bo'yicha xizmatlarning boshqa turlari va ular bilan bog'liq xizmatlar;*
*— Obyektlarga kompleks xizmat ko'rsatish;*
*— Binolarni umumiy yig'ishtirish;*
*— Binolarni va sanoat obyektlarini yig'ishtirish bo'yicha boshqa faoliyat;*
*— Yig'ishtirish bo'yicha xizmatlarning boshqa turlari;*
*— Obodonlashtirish bo'yicha faoliyat; landshaftni rejalashtirish;*
*— Kompleks ma'muriy-boshqaruv xizmati ko'rsatish;*
*— Suratlardan nusxa ko'chirish ishlari, xujjatlar tayyorlash va ixtisoslashgan idora xizmatining boshqa turlari;*
*— Axborot-ma'lumotnoma xizmati faoliyati;*
*— Konferensiyalar va savdo ko'rgazmalari tashkil qilish;*
*— To'lovlarni yig'ish bo'yicha agentliklar va kredit byurolari faoliyati;*
*— O'rash-joylashtirish faoliyati;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan, xo'jalik faoliyatiga yordamchi xizmat ko'rsatishning boshqa turlari;*
*— Maktabgacha ta'lim;*
*— Boshlang'ich ta'lim;*
*— Oliy ta'lim;*
*— Sport ta'limi, jumladan ko'ngil ochish maqsadidagi ta'lim;*
*— Madaniyat sohasidagi ta'lim;*
*— Transport vositalari xaydovchilarini tayyorlash maktablari faoliyati;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'limning boshqa turlari;*
*— Ta'lim sohasidagi yordamchi faoliyat;*
*— Shifoxona muassasalari faoliyati;*
*— Umumiy shifokorlik amaliyoti sohasidagi faoliyat;*
*— Maxsus shifokorlik amaliyoti sohasidagi faoliyat;*
*— Stomatologiya sohasidagi faoliyat;*
*— Sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa faoliyat;*
*— Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda meditsina xizmati ko'rsatish;*
*— Aqliy va jismoniy nuqsonli, ruhiy va narkologik kasalligi bo'lgan shaxslarning yashashi bilan bog'liq faoliyat;*
*— Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda keksa yoshdagilar va nogironlarni parvarishlash bo'yicha faoliyat;*
*— Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash faoliyatining boshqa turlari;*
*— Yashash uchun joy bilan ta'minlamagan holda keksa yoshdagilar va nogironlarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish;*
*— Bolalarni kunduzgi parvarishlash;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan, yashash uchun joy bilan ta'minlamagan holda boshqa ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish;*
*— Teatrlar faoliyati;*
*— Spektakllar namoyishini texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash;*
*— San'at sohasidagi faoliyat;*
*— Teatr va konsert zallari faoliyati;*

*— Tarixiy joylar va binolarni, madaniyat yodgorliklarini asrash bo'yicha faoliyat;*
*— Sport obyektlari faoliyati;*
*— Sport klublari faoliyati;*
*— Fitness-klublar faoliyati;*
*— Sport sohasidagi boshqa faoliyat;*
*— Istirohat bog'lari va tematik bog'lar faoliyati;*
*— Dam olish va ko'ngil ochishni tashkil etish bo'yicha boshqa faoliyat;*
*— Kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash;*
*— Kommunikatsiya uskunalarini ta'mirlash;*
*— Maishiy elektronika jihozlarini ta'mirlash;*
*— Maishiy tovarlar, uy va bog' inventarlarini ta'mirlash;*
*— Poyafzal va charm buyumlarni ta'mirlash;*
*— Mebellar va uy-ro'zg'or anjomlarini ta'mirlash;*
*— Soatlar va zargarlik buyumlarini ta'mirlash;*
*— Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash;*
*— To'qimachilik buyumlari va mo'ynali buyumlarni yuvish va kimyoviy tozalash;*
*— Sartaroshxonalar va go'zallik salonlari xizmatlari;*
*— Dafn marosimlarini tashkil qilish va shu bilan bog'liq faoliyat;*
*— Jismoniy komfortni ta'minlash bo'yicha faoliyat;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar;*
*— Xususiy soqchilar xizmati faoliyati;*
*— Qo`riqlash tizimlari sohasidagi faoliyat;*
*— Surishtiruv o`tkazish;*
*— Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyati;*
*— Umumiy o`rta ta'lim;*
*— Boshqa huquqiy xizmatlar;*
*— Botanika bog`lari, hayvonot bog`lari va qo'riqxonalar faoliyati;*
*— Advokatlar tuzilmalarining faoliyati;*
*— Tuproq va kaolin qazib olish;*
*— Kaolin va boshqa kaolinli tuproqlarni boyitish va shu kabi birlamchi ishlov berish;*
*— Boshqa toifalarga kiritilmagan ochiq konlarni ishlash;*

*qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa har qanday faoliyat turlari.*

*4.2. Amalga oshirilishi uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab qilinadigan faoliyat tegishli ruxsatnoma (litsenziya) olingandan keyin amalga oshiriladi.*

## *V. ISHTIROKCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI*

*5.1. Jamiyat ishtirokchilari quyidagilarga haqlidirlar:*

*qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning ishlarini boshqarishda ishtirok etish;*

*qonun hujjatlarida va jamiyat ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning faoliyati to'g'risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa hujjatlari bilan tanishish;*

*foydani taqsimlashda va uning tegishli qismini olishda ishtirok etish;*

*jamiyatning ustav fondidagi o'z ulushini yoxud uning bir qismini qonun hujjatlarida va jamiyatning ustavida nazarda tutilgan tartibda mazkur jamiyatning bir yoki bir necha ishtirokchisiga yoxud uchinchi shaxslarga sotish yoki o'zga tarzda ularning foydasiga voz kechish;*

*jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligidan qat'i nazar, qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtda jamiyat ishtirokchilari tarkibidan chiqish;*

*jamiyat tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish;*

*jami ulushlari jamiyat ustav fondining kamida o'n foizini tashkil etadigan jamiyat ishtirokchilari o'z majburiyatlarini qo'pol buzayotgan yoxud o'z harakatlari yoki harakatsizligi bilan jamiyatning faoliyat ko'rsatishiga imkon bermayotgan yoki uni jiddiy tarzda qiyinlashtirayotgan ishtirokchini jamiyatdan sud tartibida chiqarilishini talab qilishga haqlidirlar;*

*jamiyat ishtirokchilari jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.*

*5.2. Jamiyat ishtirokchilarining majburiyatlari:*

*qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilishlari;*

*qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, miqdorda, usullarda va muddatlarda hissa qo'shishlari;*

*jamiyat faoliyati to'g'risidagi sir tutilgan axborotni oshkor qilmasliklari shart.*

*Jamiyat ishtirokchilariga jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.*

## *VI. JAMIYATNING MOL-MULKI VA MABLAG'LARI*

*6.1. Jamiyat mustaqil ravishda o'ziga tegishli mol-mulkdan foydalanadi.*

*6.2. Jamiyatning mol-mulki:*

*— ishtirokchilarning ulushlaridan;*

*— jamiyat faoliyati natijasida olingan foydadan;*

*— O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalardan shakllantiriladi.*

## *VII. JAMIYATNING USTAV FONDI*

*7.1. Jamiyatning tashkil etilishi va faoliyatini amalga oshirishi uchun ishtirokchilar 130 000 000.00so'm miqdorida ustav fondi shakllantirishadi.*

*7.2. Ishtirokchilarning ustav fondidagi ulushlari quyidagicha:*

*— «AZIMOV SHAROFIDDIN ABDURASULOVICH» — 130 000 000.00 UZS, ya'ni 100.00%;*

*7.3. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin bir yil mobaynida Ishtirokchilarning har biri ustav fondidagi ulushini to'liq kiritadi.*

*7.4. Pul, qimmatli qog'ozlar, o'zga ashyolar yoki mulkiy huquqlar yoxud pul bahosiga ega bo'lgan boshqa shaxsga o'tkaziladigan o'zga huquqlar jamiyatning ustav fondiga qo'shiladigan hissalar bo'lishi mumkin.*

*7.5. Jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi qaroriga asosan ustav fondini ko'paytirishi yoki kamaytirishi mumkin.*

*7.6. Jamiyatning ustav fondini ko'paytirishga u to'liq to'langanidan keyingina yo'l qo'yiladi. Jamiyat ustav fondining ko'paytirilishi jamiyatning mol-mulki hisobiga va (yoki) jamiyat ishtirokchilarining qo'shimcha hissalari hisobiga, agar bu jamiyatning ustavi bilan taqiqlangan bo'lmasa, jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslar hissalari hisobiga amalga oshirilishi mumkin. Jamiyat ustav fondini jamiyatning mol-mulki hisobiga ko'paytirish to'g'risidagi qaror bunday qaror qabul qilingan yildan oldingi yil uchun jamiyatning buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosidagina qabul qilinishi mumkin.*

*7.7. Jamiyatning ustav fondini kamaytirish ishtirokchilarga tegishli bo'lgan ulushlarning nominal qiymatini kamaytirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Jamiyat ustav fondini kamaytirish va uning yangi miqdori to'g'risida qaror qabul qilingan vaqtdan boshlab o'ttiz kun mobaynida jamiyatning unga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlarini xabardor qilishi, shuningdek qabul qilingan qaror to'g'risida ommaviy axborot vositalarida ma'lumot e'lon qilishi shart.*

*7.8. Ustav fondini o'zgartirish to'g'risidagi qaror uchinchi shaxslar uchun ustav va ta'sis shartnomasiga tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyingina kuchga kiradi.*

## VIII. ISHTIROKCHILARNING JAMIYAT ISHTIROKCHILARI SAFIDAN CHIQISHI VA UNING OQIBATLARI

*8.1. Jamiyatning har qanday ishtirokchisi jamiyat ishtirokchilari safidan chiqish huquqiga ega. Bunday holatda ishtirokchi ustav fondidagi o'z ulushini qolgan ishtirokchilarga yoxud ularning roziligi bo'yicha uchinchi shaxslarga sotish yoki ularning foydasiga voz kechish huquqiga ega.*

*8.2. Ishtirokchi ishtirokchilar safidan chiqishida unga o'zi tomonidan ustav fondiga kiritilgan ulushning haqiqiy qiymati natura yoki haqiqiy qiymatiga teng bo'lgan pul ko'rinishida qaytariladi.*

*8.3. Jamiyat ishtirokchisi o'zgartirilganidan keyin jamiyatning ta'sis hujjatlariga zaruriy o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishi lozim.*

*8.4.Jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin kuchga kiradi.*

## IX. JAMIYAT ISHTIROKCHISINING JAMIYAT USTAV FONDIDAGI ULUSHINING (ULUSHI BIR QISMINING) JAMIYATNING BOSHQA ISHTIROKCHILARIGA VA UCHINCHI SHAXSLARGA O'TISHI

*9.1. Jamiyat ishtirokchilaridan har biri jamiyatning ustav fondidagi o'z ulushini yoki ulushining qismini jamiyatning boshqa ishtirokchilariga va uchinchi shaxslarga sotishga yoki boshqacha shaklda ularning foydasiga voz kechishga haqli.*

*9.2. Jamiyat ishtirokchisining ulushi to'liq to'langan davrgacha bo'lgan muddatda to'langan qismi bo'yichagina begonalashtirilishi mumkin.*

*9.3.Jamiyat ustav fondidagi ulushdan (ulushning bir qismidan) boshqa shaxsning foydasiga voz kechish, oddiy yozma shaklda amalga oshirilishi kerak.*

## X. JAMIYATNING HUJJATLARINI SAQLASH

*10.1. Jamiyat quyidagi hujjatlarni saqlashi shart:*

*— jamiyatning ta'sis hujjatlari, shuningdek jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan hamda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar;*

*— jamiyat muassislari yig'ilishining jamiyatni tashkil etish va jamiyatning ustav fondiga qo'shiladigan pulsiz hissalarning pul bahosini tasdiqlash to'g'risidagi qarorni, shuningdek jamiyatni tashkil etish bilan bog'liq boshqa qarorlarni o'z ichiga olgan bayonnomasi;*

*— jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat;*

*— jamiyatning o'z balansida turgan mol-mulkka bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;*

*— jamiyatning filiallari va vakolatxonalari to'g'risidagi nizomlar;*

*— jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishlarining, jamiyat kuzatuv kengashi, jamiyatning kollegial ijro etuvchi organi va jamiyatning taftish komissiyasi majlislarining bayonnomalari;*

*— jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining) va auditorlik tashkilotining xulosalari;*

*— qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar.*

*10.2. Yuqorida aytib o'tilgan hujjatlar ijro etuvchi organ joylashgan joyda saqlanadi.*

*10.3. Agarda amaldagi qonun hujjatlari bilan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lmasa, jamiyat mazkur ustavning 10.1-bandida ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni doimiy saqlaydi.*

*10.4. Jamiyat har qanday ishtirokchining talabi bilan unga axborot, shuningdek ta'sis hujjatlarini unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan taqdim qilishi yoki nusxa berishi shart.*

## XI. HISOB VA HISOBOT

*11.1. Jamiyat o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va o'z mahsuloti va xizmatlariga narxlarni bozor konyukturasidan kelib chiqib belgilaydi.*

*11.2. Jamiyat mustaqil ravishda buxgalteriya hisobini, statistika va moliyaviy hisobotni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.*

*11.3. Jamiyat mustaqil ravishda jamiyatning tashkiliy tuzilmasini, shtat jadvalini va mehnatga haq to'lashni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hal qiladi.*

*11.4. Jamiyat faoliyatiga oid hisobotlarni qonunda belgilangan tartibda davlat organlariga taqdim qiladi.*

## *XII. DAROMADNI TAQSIMLASH VA ZIYONLARNI QOPLASH*

*12.2. Jamiyat ustav fondining 15% miqdorida zaxira fondi shakllantiradi. Jamiyatning zaxira fondi uning zararlarini qoplash va qonunda nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning ustav fondidagi ulushni (ulushning qismini) sotib olish uchun mo'ljallangan.*

## *XIII. JAMIYATNING BOSHQARUV ORGANLARI*

*13.1. Jamiyatning boshqaruv organlari bo'lib quyidagilar belgilanadi:*

*— ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi — oliy boshqaruv organi;*

*— direktor jamiyatning ijro etuvchi organi.*

*13.2. Jamiyatda kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi belgilangan tartibda tashkil etilishi mumkin.*

## *XIV. ISHTIROKCHILARNING UMUMIY YIG'ILISHI*

*14.1. Jamiyatning oliy boshqaruv organi bo'lib jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi hisoblanadi.*

*14.2. Jamiyatning har bir ishtirokchisi jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishida jamiyatning ustav fondidagi o'z ulushiga mutanosib ovozlar soniga ega bo'ladi.*

*14.3. Jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:*

*a) jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash, shuningdek tijorat tashkilotlarining boshqa birlashmalarida ishtirok etish to'g'risida qaror qabul qilish;*

*b) jamiyat ustav fondining miqdorini o'zgartirish;*

*v) ta'sis hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish;*

*g) jamiyatning ijro etuvchi organlarini tuzish va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;*

*d) jamiyatning taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;*

*ye) agar jamiyatning ustavida kuzatuv kengashini tuzish nazarda tutilgan bo'lsa, uni saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;*

*j) yillik hisobotlarni va yillik buxgalteriya balanslarini tasdiqlash;*

*z) jamiyatning sof foydasini jamiyat ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilish;*

*i) jamiyat organlarining faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlash (qabul qilish);*

*k) auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish, auditorlik tashkilotlari hamda ularning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini aniqlash;*

*l) boshqa yuridik shaxslarni, vakolatxonalar va filiallarni tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;*

*m) jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qilish;*

*n) tugatuvchini tayinlash va tugatish balanslarini tasdiqlash.*

*Jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining a), b), v), z) va m) kichik bandlarida ko'rsatilgan masalalar yuzasidan qarorlari jamiyatning barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.*

*Jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining qolgan qarorlari, jamiyat ishtirokchilari umumiy ovozlar sonining ko'pchilik ovozlari bilan qabul qilinadi.*

## *XV. IJRO ETUVCHI ORGAN*

*15.1. Jamiyatning ijro etuvchi organi bo'lib jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi direktor hisoblanadi.*

*15.2. Jamiyatning direktori ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi.*

*15.3. Jamiyat va jamiyatning direktori o'rtasidagi shartnoma, jamiyat nomidan, direktor tayinlangan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishida raislik qiluvchi yoki jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan vakolat berilgan jamiyat ishtirokchisi tomonidan imzolanadi.*

*15.4. Direktor lavozimiga O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Direktor bilan tuzilgan mehnat shartnomasini direktorni saylash to'g'risidagi masala ko'rib chiqilgan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi raisi imzolaydi.*

*15.5. Direktor lavozimidan ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qarori bilan lavozimidan ozod qilinishi mumkin.*

*15.6. Jamiyatning direktori:*

*jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi va bitimlar tuzadi;*

*jamiyat nomidan vakillik qilish huquqi uchun ishonchnomalar beradi;*

*jamiyat xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi va ularni bekor qiladi, xodimlarga nisbatan rag'batlantirish choralarini va intizomiy jazolarni qo'llaydi;*

*jamiyatning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi;*

*qonun hujjatlari va jamiyatning ustavi bilan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi va jamiyatning kuzatuv kengashi vakolatlari jumlasiga kiritilmagan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.*

*15.7. Direktor ishtirokchilar umumiy yig'ilishiga hisobot beradi va uning oldida jamiyat faoliyatining amalga oshirilishi hamda unga yuklatilgan vazifa va topshiriqlarning bajarilishi uchun javobgardir.*

*15.8. Direktor jamiyat mol-mulkini tasarruf etishi va ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qarori bo'yicha yirik bitimlar tuzishi mumkin.*

## *XVI. JAMIYAT FAOLIYATI YUZASIDAN NAZORAT*

*16.1. Jamiyatda alohida nazorat qiluvchi organning tuzilishi ko'zda tutilmagan.*

*16.2. Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazorat ishtirokchilar yoxud mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.*

## *XVII. XODIMLAR*

*17.1. Jamiyat ma'muriyati xodimlar bilan jamoa shartnomasini imzolaydi. Ushbu shartnomaning mazmuni, shu jumladan «Xodimlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi nizom» O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, mazkur ustav, shuningdek jamiyat faoliyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.*

## *XVIII. JAMIYATNING TIJORAT SIRI*

*18.1. Jamiyatning tijorat siri — uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli tijorat qimmatiga ega bo'lgan, qonuniy asosda erkin foydalanilmaydigan axborot bo'lib, ushbu axborot jamiyat tomonidan uning maxfiyligini muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'radi.*

*18.2. Tijorat sirining muhofaza qilinishini ta'minlash maqsadida xodim:*

*ish beruvchi tomonidan o'rnatilgan tijorat siri rejimiga rioya etishi;*

*ish beruvchining roziligisiz tijorat sirini oshkor etmasligi va undan shaxsiy maqsadlarda foydalanmasligi;*

*mehnat shartnomasi (kontrakt) bekor qilinganda o'z foydalanishida bo'lgan, tijorat siri aks etgan moddiy jismlarni ish beruvchiga topshirishi yoki uni mazkur jismlardan ish beruvchining nazorati ostida yo'q qilib yoxud o'chirib tashlashi shart.*

## *XIX. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH*

*19.1. Jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49 — 55-moddalarida va «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar*

*to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 49 — 55-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.*

*19.2. Jamiyatni qayta tashkil etish ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qarori bo'yicha qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish va qayta tuzish shaklida amalga oshirilishi mumkin.*

*19.3. Jamiyat belgilangan tartibda ixtiyoriy ravishda ishtirokchilarning Umumiy yig'ilishi qarori bo'yicha tugatilishi mumkin. Jamiyat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra sudning qaroriga binoan ham tugatilishi mumkin.*

*19.4. Jamiyatning tugatilishi haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritib qo'yilganidan so'ng jamiyatni tugatish tamomlangan, jamiyatning faoliyati esa tugagan hisoblanadi.*

## *XX. NIZOLARNI HAL QILISH*

*20.1. Ta'sis shartnomasi va ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar ishtirokchilarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari, ta'sis shartnomasi va ustavga asosan hal qilinadi.*

*20.2. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular sud orqali, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.*

## *XXI. YAKUNIY QOIDALAR*

*21.1. Mazkur Ustav jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.*

*21.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan masalalar, qonunda boshqa hollar nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Ustavga muvofiq tartibga solinadi.*

***ISHTIROKCHILAR***

*— «AZIMOV SHAROFIDDIN ABDURASULOVICH» — 130 000 000.00 UZS, ya'ni 100.00%;*

NEW TRADE SERVIS GROUP